INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

SINTAKTIK BIRLIKLAR ASOSIDA PAYDO BO‘LGAN QO‘SHMA SO‘ZLAR TAHLILI

Sultonova Ruxsorabonu Axmatovna
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti4-kurs talabasi
*Ilmiy rahbar: dots.**Z.N.Xusanova***

Anotatsiya. Qo’shma so’zlar lug’at boyligini oshirishda ichki manba imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topuvchi leksik kompozitlarning yasalish omillari turlicha ekanligi ma’lum. Mazkur maqolada o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning hosil bo‘lishi, so‘z yasalish jarayoni va ularning nazariy modellari, so‘z yasalishining o‘rganilish tarixi hamda qo‘shma so‘zlarning shakllanish mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinadi
. **Kalit so‘zlar**: so‘z yasalishi, qo‘shma so‘zlar, leksiklashuv, so‘z birikmasi, boshqaruv, bitishuv, moslashuv, grammatik munosabat.

Аннотация. Сложные слова являются одним из внутренних ресурсов для расширения словарного запаса. Известно, что факторы формирования лексико-сложных слов, состоящих из двух или более оснований, различны. В данной статье на научной основе анализируется формирование сложных слов в узбекском языке, процесс словообразования и их теоретические модели, история изучения словообразования и механизмы формирования сложных слов.
Ключевые слова: словообразование, сложные слова, лексикализация, словосочетание, управление, связность, адаптация, грамматическая связь.

Abstract. Compound words are one of the internal resource opportunities for increasing vocabulary. It is known that the factors for the formation of lexical composites consisting of two or more bases are different. This article analyzes the formation of compound words in the Uzbek language, the process of word formation and their theoretical models, the history of the study of word formation, and the mechanisms for the formation of compound words on a scientific basis.
Keywords: word formation, compound words, lexicalization, word combination, management, cohesion, adaptation, grammatical relationship.

Kirish. Til ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda rivoj topadi. Bir tildagi lug'aviy tarkibning boyishi o‘sha til taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichlaridandir. Lug'at tarkibining rivoji esa, avvalo, so‘z yasalish jarayoni bilan uzviy bogliqdir. O‘zbek tilida derivatsiya jarayoni, morfologik, sintaktik va leksik-semantik usullar orqali amalga oshiriladi. Qo‘shma so‘zlar ham shu o‘rinda til lug'at boyligida salmoqli qismni tashkil etadi. Dastlab erkin birikma sifatida qo‘llangan birliklar vaqt o‘tishi bilan semantik jihatdan birikib, morfologik yaxlitikka, mustaqillikka ega bo‘lgan yangi leksik birliklar hosil qiladi. Shu xususda ularning sintaktik birliklar asosida yuzaga kelishi kuzatiladi. Ushbu maqoladan ko’zda tutilgan maqsad sintaktik birliklar asosida hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlarning shakillanish mexanizmini aniqlash va ularning struktur-semantik xususiyatlarini izohli lug'at asosida tahlil qilishdan iborat. Til tarkibida mavjud bo‘lgan birliklar, so‘zlar yoki so‘z qismlari yordamida yangi so‘z vujudga kelish jarayoni so‘z yasalishi, ya’ni derivatsiyadir. Ma'lumki, til doimiy rivojlanish, o‘sish jarayonidadir va jamiyatda paydo bo‘layotgan har bir yangi tushunchani ifodalash uchun yangi nom, so‘zga ehtiyoj seziladi. Mana shu ehtiyoj qondirilishida esa tilshunoslikda so‘z yasalishi ham muhim rol o‘ynaydi. O 'zbek tilida so‘z yasalishi, asosan, ikki yo‘l bilan yuzaga keladi: 1. Affiksatsiya (morfologik usul) – asosga so‘z yasovchi qoshimchalar qo‘shilishi orqali yangi leksemaning hosil qilinish usulidir. Bu o‘zbek tilidagi eng faol va mahsuldor usul hisoblanadi va fe’l, ot, sifat, ravish so’z turkumi doirasida yasovchi morfema orqali yangi so’zlar yasash mumkin. O’zbek tilida yangi so’z yasash modeli agglyutinativ til tabiatiga ko’ra asos + so‘z yasovchi affiks = yangi leksema shaklida amalga oshirilsa-da, fors-tojik tilining ta’siri tufayli so’z yasovchi affiks (prefiks) +

asos = yangi leksema modeli yuzaga kelgan. 2. Kompozitsiya (sintaktik usul) – ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlar qo‘shilishi yoki juftlashishidan yangi so‘z hosil qilish jarayonidir. Masalan, temiryo‘l, suvosti, qo‘lqop; achchiq-chuchuk, kam-ko’st. Bu kabi yasalmalar asos + asos = yangi leksema shaklidagi qolip asosida shakllanadi. Bu modelda hosil bo‘lgan so‘zlar ham qo‘shma, ham juft yasama so‘zlar bo’lishi mumkin va qo’shma shaklda fe’l, ot, sifat va ravish so’z turkumi doirasida hamda juftlab so’z yasash esa ot, sifat va ravish turkumi doirasida kuzatiladi. Yuqoridagi asosiy ikki model orqali til lug'at tarkibiga yangi, bir butun semantik ma'noga va sintaktik vazifaga ega leksema qo‘shiladi. Til birliklarining shakillanishi, yangi hosilalarning vujudga kelishiga bo‘lgan ehtiyoj jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan. Shunga binoan so‘z yasalishining o‘rganilish tarixi ham tilshunoslikning eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Tilimizda leksik derivatsiya bilan bog’liq dastlabki tadqiqotlar xususida so‘z borganda, qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy nomi tilga olinadi. Olimning «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy tillarda so‘z yasalishiga doir ilmiy tavsiflar kuzatiladi. Hazrat Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayin» asarida ham so‘z yasalishiga doir qator mulohazalar va asoslar mavjuddir. O‘zbek tilshunosligida birinchilar qatorida so‘z yasalishi asosida maxsus tadqiqot olib borgan A.G‘ulomovning 50-yillarda e’lon qilgan maqolalaridan birida so‘z yasalishi tadqiqining o’sha davridagi holatiga doir quyidagi ma’lumotlarni uchratish mumkin: «So‘z yasalishi masalasini biz hozirgacha morfologik planda qarab kelamiz, holbuki, so‘z yasalishi qanday bo‘lmasin, biror usul bilan yangi so‘z hosil qilishdir. Demak, u leksika - so‘z bahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta'limotga ko‘ra, so‘z yasalishi va so‘z o‘zgarishi morfologiyada qaralardi. Haqiqatda esa, bular formal jihatdan o‘xshash, funktsional jihatdan boshqa-boshqa hodisadir: birinchisi-leksik hodisa, ikkinchisi-sintaktik hodisadir». [Лингвис. энцик. словарь; 1990: 468]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, o’tgan asrning 60-yillariga kelib, so‘z yasalishini o‘rganish bo‘yicha to‘plangan ana shu boy tajribalar tilning morfologik, fonetik fonologik, leksik-semantik va sintaktik qatlamlari bilan bog‘liq qonuniyatlar asosida yanada chuqurlashtirildi. Jumladan, so‘z yasalishining hozirgi maqomga ega bo‘lishida umumiy tilshunoslikda G.O.Vinokur, N.A.Yanko-Trinskaya, A.N.Tixonov, Ye.S.Kubryakova, V.V.Lopatin, I.S.Uluxanov, N.M.Shanskiy kabilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida U.Tursunov, Z.Ma’rupov, A.G‘ulomov, A.Madraximov, B.Madaliyev, A.Hojiyev kabilarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. [Nurmonov; 2002:145] So‘z yasalishi hodisasining lingvistik talqinlaridagi yana bir yo‘nalish mazkur hodisaning derivatsiya termini ostida o‘rganilishi orqali ko‘zga tashalanadi. Mazkur termin tilshunoslikka o‘tgan asrning 60-yillarida chex tilshunosi Ye.Kurilovich tomonidan olib kirilgan edi. U nemis tilshunosi Slottining so‘z turkumlarida semantik kategoriya va sintaktik funksiyaning o‘zaro mutanosib hamda nomutanosibligini belgilashda muhim bo‘lgan omillar haqidagi fikriga munosabat bildirish maqsadida derivatsiya terminidan foydalanadi. [Tursunov A.R. So‘z yasalishning tarixiy bosqichlari // Ilm-fan va innovatsiya konferensiyasi. – 2023]

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, kompozitsion model asosida hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlar – ikki va undan ortiq mustaqil leksemalarning birikishi natijasida yangi leksik ma'no hosil qilgan til birligidir. Tilshunos A.Hojiyev ta'kidlashicha, qo‘shma so‘zlar tarkibidagi komponentlar dastlab alohida so‘z sifatida mavjud bo‘lib, ular birikib yangi semantik birlikni yuzaga keltiradi. Xususan, o‘zbek tilida so‘z birikmalarining leksiklashib, bitta so‘z sifatida qo‘llanishi natijasidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlar mavjuddir. Ilmiy manbalardan bilib olish mumkinki, aksariyat qo‘shma so‘zlar, odatda, aniqlovchi- aniqlanmish formasidagi birikmalar asosida vujudga kelgan: “belbog‘ (belning bog‘i), mingboshi (mingning boshlig‘i), olmaqoqi (olmaning qoqi), tokqaychi (tok uchun ishlatiladigan qaychi) ko‘zoynak (ko‘zning oynasi), tegirmontosh (tegirmonning toshi), ishboshi, yurtboshi, jo‘raboshi kabilar. Albatta, boshqa ko‘rinishdagi birikmalarning o‘zgarishi asosida shakllangan bunday qo‘shma so‘zlar ham anchagina. Ular asosan predikativ qo‘shilmalar ob’yektli yoki relyativ birikmalar ko‘rinishlaridagi sintaktik birliklarning qisqarishi (o‘zgarishi) natijasida ham paydo bo‘lgan” [Shoxistaxon X. va b.; 2024: 63].

Tahil va natijalar. Tadqiqot obyekti masalasida asosiy manba sifatida “O’zbek tilining izohli lug'ati”ga murojaat qilar ekanmiz, mavjud kompozitsion leksemalar tilshunoslikning sintaksis bo’limida

lisoniy birliklarning birikish usullar: moslashuvli, boshqaruvli va bitishuvli birikma asosida vujudga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, uchburchak, ko'ksulton, beorgul, beshbarmoq, daxshatxona, devyurak, diqqinafas kabi misollar bitishuvli birikish natijasidan hosil qilingan. Masalan, uchburchak, to'rtburchak, beshburchak, ko'pburchak UGM(umumiy grammatik ma'no)si bir bo'lgan ushbu leksemalarning barchasi bir xil lisoniy qolip asosida sifatlovchi+sifatlanmishdan tarkib topgan: Predmet (yoki figura)ning uchta burchagi (bor); to'rtta burchagi (bor); beshta burchagi (bor); ko'p burchagi (bor). Shuningdek, bitishuvli birikmalarning leksemalashuvi hol+hollanmish munosabatida ham uchraydi. Masalan, tezyurar (tez yurar), tezoqar (tez oqar), beshotar (besh otar) kabi. Qaratqich+qaralmish munosabatidagi moslashuvli sintaktik birliklar asosida hosil bo'lgan so'z birikmasiga esa lug'atdan quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin: bilaguzuk (bilakning uzugi yoki bilak uchun uzuk), derazatokcha (derazaning tokchasi), davraboshi (davraning boshi), ellikboshi (ellikning boshi- ellik kishi uchun bosh), elnavkar (elning navkari) va h.k. To'diruvchi+to'dirilmish yoki hol+hollanmish munosabatidagi boshqaruvli sintaktik birliklarning grammatik munosabati yo'qolishi natijasida yasama leksemaga aylangan qo'shma so'zlar sifatida quyidagilarni ko'rish mumkin: muzyorar (muzni yorar), beshiktervatar (beshikni tervatar), Bundan tashqari, sintaktik birliklar asosida paydo bo'lgan qo'shma leksemalarni izohlar ekanmiz, tilimizda yana bir munosabat – predikativ munosabati (ega+kesim) asosida yaxlitlikni vujudga keltirgan qo'shma so'zlar ham mavjudligini aytib o'tishimiz lozim. Til taraqqiyotida ayrim predikativ konstruksiyalar nutq jarayonidagi turli ta'sirlar (keng iste'molda bo'lishi, nutqiy ixchamlikka intilish) natijasida o'zining mustaqil vazifasi, gaplik xususiyatini yo'qotib, semantik va grammatik jihatdan yaxlitlashib, bir leksik birlikni tashkil etadi. Buni predikativ birlikning leksiklashuvi deb atash mumkin. Masalan, darrasoldi (darra soldi) – etn. bolalar va o'smirlarning o'yinlaridan biri [O'TIL1-jild, 2023: 779], begimsuydi (begim suydi) – po'stida taramtaram belgisi bor qovun turi [O'TIL1-jild, 2023: 361], go'shtkuydi (go'sht kuydi) – xamirga go'sht, piyozli qiyma tugib, tandirda pishiriladigan somsa [O'TIL2-jild, 2023 :280] Kompositsion leksema, so'z birikmasi, gap (predikativ aloqa) – har uchala lisoniy birlik uchun ham umumiy bo'lgan UGM (umumiy grammatik ma'no) – lisoniy imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular 1) ikki qismdan iborat bo'lishi; 2) qolip asosida hosil bo'lishidir. Ammo bu lisoniy birliklarning har biri uchun xos bo'lgan XGMlarni quyidagicha izohlash mumkin. Qo'shma so'z – leksik birlik bo'lib, bitta so'roqqa javob beradi; grammatik munosabat ifodalamaydi, tushuncha ifodalaydigan tilning tayyor materiali hisoblanadi. So'z birikmasi – grammatik birlik, grammatik munosabat saqlaydi, ya'ni hokim-tobe munosabatida bo'ladi, qismlari alohida so'roqlarga javob beradigan nutqiy hosila; izohlangan tushuncha ifodalaydi. Gap – predikativ aloqada bo'ladi, tobe-hokim munosabati saqlanadi, ya'ni grammatik munosabat saqlanadi; qismlari alohida so'roqlarga javob beradi; fikr ifodalaydi. Lisoniy birliklarning XGM (xususiy grammatik ma'no)lari ularning alohida tadqiqot obyekti ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sintaktik birliklar asosida hosil bo'lgan qo'shma so'zlar til taraqqiyoti jarayonida erkin so'z birikmalarining asta sekin leksiklashib, bitta mustaqil so'zga aylanishi natijasida yuzaga keladi. Dastlab ular gap yoki so'z birikmasi tarkibida qo'llangan bo'lsa, nutqda ko'p ishlatilishi natijasida ma'no jihatdan yaxlitlashib, tilning lug'at tarkibiga qo'shiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – 12 b.
2. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: 1990. – 468 b.
3. Nurmonov A. Abdurauf Fitratning lingvistik faoliyati // O'zbek tilshunosligi tarixi. – T., 2002. – 145 b.
4. Shoxistaxon X., Sayyora Y., Azizbek M. Qo'shma so'zlarning vujudga kelishi haqida // Central Asian Journal..., 2024. – 63 b.
5. Tursunov A.R. So'z yasalishning tarixiy bosqichlari // Ilm-fan va innovatsiya konferensiyasi. – 2023.
6. Umarova X.I. So'z yasalish tizimining tilshunoslikda o'rganilishi. – 2024.
7. Yusupova D. So'z yasalishi va yasama so'zlar. – Termiz, 2023.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent, 2023. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent, 2023.